



ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA DETAL VA OBRAZLAR

Ataniyazova Mubarak

f.f.f.d., dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

ataniyazova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20695971>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 13-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 15-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Alisher Navoiy, g'azal, detal obraz, tobut detali, mansab falsafasi, an'anaviy obrazlar (Farhod, Majnun), poetika, lirik qahramon.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azaliyotidagi detal obrazlar tizimi, ularning falsafiy-ta'limiy tabiati va poetik strukturadagi o'rni tadqiq etilgan. Shoir asarlaridagi o'tkinchi dunyo, amalparastlik va mansab mas'uliyatini ifodalovchi "tobut" detali hamda uning "Mahbub ul-qulub" asari bilan g'oyaviy bog'liqligini ochib berilgan. Shuningdek, maqolada g'azallar misolida Farhod, Majnun va Vomiq kabi an'anaviy obrazlarning parallel qo'llanish xususiyatlari hamda lirik qahramon ruhiyati bilan uyg'unligi tahlil qilingan. Baytlar poetikasi talmih, tajnis, tamsil, tashxis va mubolag'a kabi badiiy san'atlar uyg'unligida tizimli yoritilgan.

Alisher Navoiy lirik devonlarida Sharq she'riyatida an'ana bo'lib kelgan obraz-timsollarning ifoda ko'lamiga ko'ra salmog'i nuqtayi nazaridan unga teng keladigan boshqa ma'naviy-badiiy xazinani uchratish qiyin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy lirik merosini tadqiq etish o'zbek adabiyotshunosligida boy an'anaga ega. Ushbu maqolada matniy asos sifatida Alisher Navoiyning asosan "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidan joy olgan "G'aroyib us-sig'ar" va "Badoye' ul-vasat" devonlari xizmat qildi. G'azallardagi badiiy san'atlar, obrazlar mohiyatini ochishda Yo.Is'hoqovning "Navoiy poetikasi" (1983) hamda "So'z san'ati so'zligi" (2014) tadqiqotlariga tayanildi. G'azallarning musiqiy tabiati, tahlilga tortilgan matnlarning aruziy xususiyatlarini belgilashda A.Hojiahmedovning fundamental asarlari ("Mumtoz badiiyat malohati", 1999; "Navoiy aruzi nafosati", 2006; "O'zbek aruzi lug'ati", 1998) nazariy asos bo'ldi. Shuningdek, g'azal matnlaridagi takrir va ohangdorlik tizimi A.Qayumovning "Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar" (2014) asari metodologiyasi asosida lirik qahramonning ruhiy yuksalishi bilan bog'liq holda baholandi.

Matndagi tasavvufiy ramzlar hamda arxaik birikmalarning lingvo-poetik qatlamlarini to'g'ri talqin qilishda Berdak Yusuf (2010), J.Lapasov (1994) hamda M.Ataniyazova (2021) tomonidan nashr etilgan mumtoz adabiyot va istilohlar lug'atlaridan samarali foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot maqolada Alisher Navoiy g'azallaridagi g'oyaviy-badiiy konsepsiyani, poetik struktura va ramziy obrazlar tizimini ochib berish uchun quyidagi maxsus ilmiy metodlar majmuasi qo'llandi: Strukturaviy-semiotik va konseptual tahlil: G'azallardagi an'anaviy lirik obrazlar (*Farhod, Majnun, Vomiq*) hamda ijtimoiy-didaktik

detallarning (*tobut, mansab, kursi*) ramziy-semantik qatlamlari shoirning falsafiy va nasriy merosi ("*Mahbub ul-qulub*") kontekstida yaxlit tizim sifatida o'rganildi. Poetik va funksional-stilistik tahlil: Matndagi badiiy san'atlarning (*talmih, tajnis, tamsil, tashxis, mubolag'a*) baytlar mantiqini shakllantirish hamda lirik qahramon ruhiyatini ifodalashdagi estetik funksiyalari Yo.Is'hoqov va A.Hojiahmedovning she'rshunoslikka oid nazariy va tahiliy qarashlari asosida yoritildi. Qiyosiy-matniy (tekstologik) metod: Maqolada tahlilga tortilgan g'azal matnlari Alisher Navoiyning "To'la asarlar to'plami" (2013) fundamental nashri asosida qiyosiy o'rganilib, so'zlarning leksik-semantik talqinlari mumtoz adabiyot lug'atlari yordamida aniqlandi.

Ushbu metodologik yondashuvlar g'azal matnlarini ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan mukammal baholash imkonini berdi.

Tadqiqot tahlili va natijalari.

Shoir g'azallarida ayrim detal obrazlar ham mavjudki, ular shoirning dunyoviy qarashlariga o'ziga xos an'anaviylik bilan birga ta'limiy g'oyalarni ham singdirib yuborganligini kuzatamiz. Masalan, dunyo o'tkinchiligi, odamning foniyligi kabi qarashlar bilan birgalikda mansabning o'tkinchiligi va mas'uliyati haqidagi fikrlar ifodasini *tobut* detali bilan beradi. Mumtoz adabiyotda mansab, amalning *tobut*ga tashbih qilinishi hikmatlar, didaktik xarakterdagi asarlar asosida shakllangan bo'lishi mumkin. Bunda, vaqtinchalik – vaqt meyorining qisqaligi (bir mart avay qabrgacha) asosida mansab ham *tobut*ga chiqishdek tasvir qilinadi:

*Jon halok o'ldi Navoiyg'avu tan zoru nahif,
Ul o'lukka yasamish ushbu so'ngakdin tobut. [1. 76-bet]*

Odamlar yelkasida *tobut*ni ko'tarishadi, *tobut*dagi odam esa harakatsiz va ojizdir, atrofdagilar ko'rsatayotgan hurmat esa odamga emas, balki uning mansabiga, ya'ni kursisiga bo'ladi, demak kursi *tobut*ga o'xshatish qilindi. Shuningdek, bu ifoda bir metafora vazifasini ham bajaradi: "Mansab – omonat" ekanligini unutmagan holda, o'lim va oxiratni esga soluvchi bir obrazdir:

*Chun qaro bodom tobut uzra rasmedur qadim,
Ko'z janozam sori solkim, sensizin bo'ldum qatil.*

Shoir asarlarida mansab, dunyo molining o'tkinchi ekanligini ifoda etuvchi misollarni ko'plab topishimiz mumkin. "Mahbub ul-qulub" asarida "Mansab bir *tobut*dirki, uning ustiga chiqqan kishi tirik bo'lsa ham, o'luk hukmidatur", - deb yozadi. Ya'ni, mansab yoki amal zulmga xizmat qildirilsa, mansabdor ruhan o'lik hisoblanib, uning kursisi ma'naviy qabr yoki *tobut* vazifasini bajaradi. Dunyo mansabi baland imoratga o'xshatish qilinadi, *tobut*dan faqat lahadga tushilgani kabi mansabdan ham zavolga – pastlikka tushiladi. Mansabparastlik, amalparastlik bilan kishi o'zini o'zi kishanlaydi, omonat yuk egalariga aylanishi, zolim va johillik yukidan qutila olmagan amaldorlarni tanqid ostiga oladi. Navoiy bunday hikmatli satrlarni bitar ekan, johillik, ochko'zlik natijasida kelib chiqadigan zulm ko'ngil egasining o'ziga qaytishi, uni abgor qilishi haqidagi qarashlarini ifoda etadi. Oshiqlik va foniylilik tushunchalari bilan sug'orilgan g'azallarda bunday obrazlardan foydalanib, dunyoviy obro'ni *tobut*ga o'xshatish qiladi. Yuqorida ko'rganimiz g'azalning 6-baytida o'zluk – nafs, foniylilik va vusul haqidagi tasavvufiy-tanqidiy qarashlari o'z ifodasini topgan:

*O'zluki boqi-yu zohid uradur lofi vusul,
Foniy o'lmay kishi topqaymu bu da'vog'a subut? [1.76-sahifa]*

Bayt poetikasini to'liq keltirishga harakat qilamiz. Oldin so'zlarning lug'aviy ma'nolarini ko'rib chiqamiz. O'zluk – insonning “men”ini, nafsini, xudbinligini, dunyoviy vujudni ifoda etadi. Boqi – mangu, tirik, saqlanib qoluvchi; zohid – baytda zohirbin odam obrazi ma'nosida kelgan; lof urmoq – yolg'on aytmoq, maqtanmoq; vusul – erishmoq, yuksalmoq, ko'tarilmoq; foniyo o'lmoq – yo'q bo'lmoq; nafsni o'ldirmoq (fanolik darajasiga erishmoq); subut – dalil, isbot. Demak, baytda real voqelik o'z ifodasini topgan, shoir tasavvufiy g'oyani – nafs qutqulari tirik ekan, zohidda yoki oshiqda vusul, ya'ni ma'naviy parvoz bo'lmasligini qarshilantirish, qiyoslash san'atlari orqali ifoda etmoqda. Zohidni tanqid qilar ekan, zohiriy aqidaparastlik bilan odam o'zini aldab qo'yishi, vaqtdan mag'lub bo'lishi, oshiq nafsoniy orzular, menlik manfaatlar bilan foniylilik shartlarini bajara olmasligini har bir so'zning qatiga joylagan.

Adabiyotshunoslikda shakl va mazmun jihatdan bir adabiy hodisaning ikkinchi bir ifodaga o'zgarishi yoki o'zgartirilishi, timsol, obraz yoki syujetning turli janriy, shakl jihatdan o'zgarishi ijodiy talab yuzasidan maydonga keladi. Obrazlar genezisi, o'zgarishi, tovlanishi, o'zlashish hodisasi kabilar badiiy matn poetikasi bilan bog'lanadi. She'riyatda eng ko'p qo'llanilgan obraz, timsollar, ramz va detallar muayyan asarning mavzusi, mohiyati, lirik qahramon kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Shundan muayyan ma'noda ilohiy timsollar – ma'rifiy, tarixiy siymolar – ijtimoiy, adabiy qahramonlar – ishqi mavzular talqiniga xos badiiy-estetik fikrlarni vujudga keltiradi.

Tashbihlar qo'llanilganida Farhod obrazi bilan bulbul, jon to'tisi kabi timsollar keladi, Shirin bilan esa *gul, sarv, la'l* kabi ramzlar tashbih yoki tamsil qilinadi. Ranglarni ramziy qo'llash uzoq tarixga ega, mifologik tushunchalarda ham, ilmiy qarashlar bilan qorishib ketgan dunyo va borliq haqidagi falsafiy talqinlarda ham rang bilan bog'liq obrazlarni uchratamiz, negaki, bizning tasavvurlarimiz turli xil ranglar bilan bezatilagan, bu bezaklar so'z ifodasiga ham ko'chgan:

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,

Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro? [2. 23-bet]

Navoiy g'azallarida ishlatilayotgan badiiy san'atlarning vazifasi aniq va bir vaqtning o'zida xilma-xil bo'lib kelishi mumkin.

Go'r uchun ochmoq nedur har lahza Bahromiy kamand,

Chun seni Bahromdek aylar ajal go'ri shikor. [2. 193-bet]

Mazkur baytda talmih bilan birga takrir san'atidan ham foydalanilgan, shuningdek, eng zavqlisi takrir vazifasidasi so'zlar tajnis bilan omuxta qilingan, talmihni esa tashbihga xizmat qildirmoqda, harakatlantirish – tashxisdan ham o'rinni foydalangan. Shoir lirikasida fikr ilgari suriladi, keyin uni chiroyli tamsillar bilan bir necha baytlar vositasida quvvatlantiriladi, bunday adabiy priyomning ham ma'lum sabablari bor, ya'ni fikrni hikmat bilan quvvatlantirish vojib bo'lgan amallardan sanaladi, bu mumtoz she'riyatda ham o'ziga xos ko'rinishlarga ega:

Ahvolima Farhod ila Majnun'ga taajjub,

Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo. [2. 56-bet]

Bu baytda lirik qahramonning ahvoli mubolag'ali tarzda tasvir qilingan, talmih vazifasini bajarib kelayotgan obrazlar Farhod bilan Majnun ham bu holi ruhiyadan taajjubda, ikkinchi misradagi *men* orqali shoir, aynan, lirik qahramonga urg'u bergan. Menni xirad ahliidan ajratish orqali Farhodning fardlanishi, Majnunning aynan odamlar tomonidan rad qilishiga ishora qilmoqda, bizningcha.

Misralarda bir-birini taqozo qilmaydigan tushunchani, so'zni topish qiyin, ular ham mantiqiy, ham grammatik jihatdan uzviy aloqada. O'zaro bog'liqlik she'riy janrlarda farqlanishi mumkin, masalan, g'azallarda baytlararo, tarji'larda bandlararo, kichik janrdagi asarlarda esa she'r doirasida keladi. Dalillashda, odatda, tamsil san'ati bilan birga boshqa tasvir vositalaridan ham foydalaniladi. Tahlil jarayonida "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi ikki yuzdan oshiq g'azalni kuzatish davomida shu narsaga guvoh bo'ldikki, shoir ko'pincha Farhod obrazini Majnun obrazi bilan birga parallel ishlatgan, bu obrazlar orqali faqat ishorat emas, balki lirik qahramon holatining maqom, darajalari, hajr nashidasi tuproqlik – asllik sari yetaklovchi bir kuch sifatida talqin qilinadi, visol umidi qalb ichra yog'du sochuvchi, maqomdan maqomga oshish dovonlarida yo'lni yorituvchi, lirik qahramonga dalda emas, aksincha kuch beruvchi kabidir.

Farhod birla Vomiq-u Majnun chiqib edi,

Soldi meni alar avazi deb arog'a charx. [2. 132-bet]

Qarab tursak lirik qahramon, xuddi, ular bilan hamisha birgadek, yoki ular qahramondan hech qolmayotgandek tasavvur uyg'otadi. Nahotki, Farhod-u Majnunlar oshiqqa – lirik menga, uning ozorlanishlariga befarq emas, hatto bundan ularning dili ham ozorda, joylarida hech tinch yotolmaydi:

Meni gah dasht-u gah tog' uzra ko'rgan,

Tirilmish sog'inur Majnun-u Farhod.

Baytdagi vazn xususiyatlari, qofiya unsurlari, she'riy san'atlar, gap qurilishidagi inversiya holati ham badiiy g'oyaning kuchaytirishga xizmat qilgan, lirik qahramonning tinimsiz harakatlari tasvirida mubolag'adan unumli foydalanilgan. Lirik qahramonning ko'ngli hamma taqlid qiladigan joy, hatto, ishq ahli ham uning ko'ngli oldida taqlidchiga o'xshab qolmoqda, ishq rusumi esa taqlidni rad etadi, zohirbin taqlidchilarning alal oqibat erishadigan natijasi esa quruq oh bo'lib qoladi:

Taqlid qilib ko'ngluma ishq ahli chekar oh,

Ul bordi-yu el ichra sarovozi qolipdur. [2. 208-bet]

Lirik qahramon holatini ifodalashga har qanday detalni xizmat qildirgan olgan, har bir so'zni obraz darajasiga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Tong, subh, charx, ko'k, mehr, g'uncha kabi qator obrazlar, timsollar turli tuman birikmalar hosil qilib, turli xil poetik vazifalarni bajarib keladi:

Ochilur ko'nglum samandi sayridin,

G'uncha yanglig'kim sabodin ochilur. [2. 210-bet]

Baytda takrir va tashbihning o'ziga xos ko'rinishi mavjud, sabo bunda badiiy detal vazifasini bajargan. Yoki:

Ko'zumdin etmagil, ey sarv, hech jonib mayl,

Ki yaxshiroq ko'runur sarvkim, bo'lur xamsiz.

Navoiyni vara'-u zuhd qaydi o'zlugidin

Xalos qilmadi, ey ishq-u may, magar ham siz. [2. 221-bet]

Baytlarda nido san'ati vazifasida ey sarv, ey ishq-u may kabilar kelgan, birinchi baytda sarv orqali takrir ham vujudga keltirilgan, sarv xam emas – egik emas, shuning uchun u ko'zga tahlanuvchi. Maqta'da shoir o'z vara'I zuhdi haqida xulosasini bayon etgan, o'zluk, balki, bu yerda nafs istaklaridir, odatda uning istaklari dunyo johi bilan bog'lanadi, natijada zuhd – qalb poklanishi bilan bog'liq bo'lgan amallar mevasi ko'zga ko'rinmay qoladi, shuning uchun ishq va

mayga – ilohdan keladigan ma'rifat mayiga nido qilmoqda. Balkim shunda ma'shuqa oshiq ahvolidan xabardor bo'lishi mumkindir.

Ko'j radifli g'azali an'anaviy yetti baytdan iborat, *ko'j* sakkizta o'rinda radif bo'lib kelgan, yana uchta joyda takrir bo'lib kelmoqda, qofiyalanish tartibiga ko'ra oddiy g'azal: *mahzunni* – *Majnunni* (a – a), - *mahzunni* (b – a), - *gardunni* (v – a), - *nunni* (g – a), - *mavzunni* (d – a), - *beqonunni* (e – a), - *Afridunni* (j – a).

G'am yuki qilmaydurur yolg'iz meni mahzunni ko'j,

Ham bu yuk qilmish edi Farhod ila Majnunni ko'j. [2. 243-bet]

Mazkur g'azalda Farhod va Majnun timsollari uchta joyda ishlatilib, talmih san'ati bilan birga zidlanishni ham, mubolag'ani ham hosil qilmoqda. *Ko'j* so'zi *qaysar*, *o'jar* degan ma'nolarda ishlatiladi. G'am yuki birgina lirik qahramon bilan cheklanib qolmagan:

Yuk agar budur ne Farhod-u ne Majnun ne men,

Rost, gar dersen bu yuk aylab turur gardunni ko'j.

Gardun yuki lirik qahramonni Farhod va Majnun bilan tenglashtirdi, qismat hammaga tenhlik, bu esa ishq qismati. Baytdan baytga o'tgani sayin oshiq mavjud shaxsga aylanadi, shaxsan shoirning o'zi shoh xizmatchisi bo'lib gavdalanadi.

Gar Navoiy ko'j erur shah xizmatida ne ajab,

Chunki qilmish qullug'i Jamshid-u Afridunni ko'j.

G'azalda qismat yukining salmog'ini badiiy tasvirlashda harf san'anidan ham chiroyli foydalangan, ya'ni arabiy imloda so'zlarning yozilish tartibidan foydalangan holda falsafiy qarashlarini ifoda etmoqda, bir baytda ham takrir (*gardun*), ham harf san'ati (*gardun* va *nun*), ham tashxis san'atlaridan foydalanilgan:

Vah ne yukdur buki, gardun qomatin ko'j ayladi,

Oy'lakim gardunning ostida ko'rarsen "nun"ni ko'j.

Shoir majoziy ma'noda o'z ahvoli, ijodining maqom darajasi bilan faxriya qiladi, bu qonuniy suratda lirik qahramonni tarixiy-afsonaviy obrazlar qatoriga olib chiqadi, hattoki, ulardan ham yuqoriroq darajalargacha sayr qiladi. Ishq havas emas, u havasga aylandimi endi u ishq emas, ishq insonni malaklar tomon yuksaltiradi, havas esa uni darrandalar tomon sudraydi, oshiq ishqini hammadan sir saqlashi uchun oldin o'z-o'zidan, tili bilan ko'nglidan himoya qilishi kerak, jonning ichida saqlanishi lozim bo'lgan bir latiflikdir.

Xulosa. Ulug' so'z sohiblarining mahorati shundaki, ular boshqalar ko'rmagan narsalarni ko'radi va boshqalar ilg'amagan narsalarni ilg'aydi va har bir narsadan manfaatli, tegishli xulosalar chiqarishadi. Alisher Navoiy ana shunday daho san'atkorlardan biridir. Uning ayrim baytlarini o'qib, topilmalaridan, sezgirliklaridan hayratga tushasiz. Navoiyni kuzatib shunday xulosaga kelasizki, ilmning qaysi sohasi bo'lmasin undan unumli foydalanadi va o'zi nazarda tutgan g'oyani badiiy so'z san'ati vositasida obrazli qilib, jonlantirib, she'riyatga olib kiradi va ko'z oldingizga gavlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 3-jild. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi". 2013. – B.764.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 2-jild. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi". 2013. – B.764.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: "Sharq". 1999. – B.240.
4. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. Toshkent: "Sharq". 1998. – B.224.

5. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi ("Xazoyin ul-maoniy" asosida). Toshkent: "Fan". 1983. – B.167.
6. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent: "O'zbekiston". 2014. – B.320.
7. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. Toshkent: "Sharq". 2014. – B.272.
8. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent: "Sharq". 2010. – B.528.
9. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi". 1994. – B.272.
10. Ataniyazova M. Mumtoz adabiyot istilohlari qisqacha izohli lug'ati. Nukus: "Ilimpaz". 2021. – B.100.

